

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA FIDBEK VA IPSATIV BAHOLASH — REFLEKTIV BAHOLASH KOMPLEKSI SIFATIDA

Muxamedova Risolat Jaxongir qizi

*O‘zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi qoshidagi
“Ziyo-Zukko umumta’lim maktabi” NTM Yuqori sinf pedagogi
Oriental universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda baholash jarayonini takomillashtirishda fidbek va ipsativ baholashning reflektiv baholash kompleksi sifatidagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida baholashning zamonaviy pedagogik yondashuvlari, o‘quvchilarning shaxsiy rivoji va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilindi. Fidbek va ipsativ baholashning boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishdagi pedagogik imkoniyatlari ilmiy asoslandi.*

Kalit so‘zlar: *fidbek, ipsativ baholash, refleksiya, reflektiv baholash, boshlang‘ich ta’lim, o‘quvchi rivoji.*

Аннотация: *В данной статье подчеркивается важность обратной связи и ипсативной оценки как комплекса рефлексивной оценки в совершенствовании процесса оценивания в начальной школе. В исследовании проанализированы современные педагогические подходы к оцениванию, их роль в личностном развитии учащихся и формировании навыков самооценки. Научно обоснован педагогический потенциал обратной связи и ипсативной оценки в повышении эффективности начального образования.*

Ключевые слова: *обратная связь, ипсативная оценка, рефлексия, рефлексивная оценка, начальное образование, развитие учащихся.*

Abstract: *This article highlights the importance of feedback and ipsative assessment as a reflective assessment complex in improving the assessment process in primary schools. The study analyzed modern pedagogical approaches to assessment, their role in the personal development of students and the formation of self-assessment skills. The pedagogical potential of feedback and ipsative assessment in increasing the effectiveness of primary education was scientifically substantiated.*

Keywords: *feedback, ipsative assessment, reflection, reflective assessment, primary education, student development.*

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘quvchilarning bilimni baholashga bo‘lgan yondashuvni tubdan o‘zgartirishni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida baholash jarayoni o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash bilan birga, ularning shaxsiy rivoji, mustaqil fikrlashi va reflektiv tafakkurini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.



An'anaviy baholash tizimida asosan ball yoki baho orqali natijaga yo'naltirilgan yondashuv ustun bo'lib kelgan. Biroq bu holat o'quvchilarda raqobat, qo'rquv va o'ziga ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, boshlang'ich sinflarda baholashning insonparvar va rivojlantiruvchi shakllarini joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda fidbek va ipsativ baholash reflektiv baholashning muhim tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida reflektiv madaniyatni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlari fan-texnika yutuqlariga asoslangan eng samarali texnologiyalar va o'qituvchilar o'z faoliyatida afzal bilgan hamda ilmiy asoslangan barcha vositalardan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi. Bunda bir tomondan reflektiv madaniyatni rivojlantirish jarayonlaridagi hamkorlikdagi faoliyat, boshqa tomondan tarbiyaviy munosabatlar reflektiv madaniyatni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida reflektiv madaniyatni rivojlantirish jarayonlarida o'qituvchilar bilan o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, ya'ni subyekt-subyekt munosabatlarini shakllantirish tarbiyaviy munosabatlar asosida amalga oshiriladi va mazkur jarayonda reflektiv madaniyatlar shakllanib, rivojlanib boradi. Tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining rivojlanishi reflektiv ta'limiy muhitda o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati samaradorligi hamda innovatsion o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida reflektiv madaniyatni rivojlantirish jarayonlarida innovatsiyalar tarbiyaviy munosabatlar jarayonining eng muhim va asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lib, ular innovatsion jarayonlarda nafaqat o'zining tavsifi va xususiyatlari bilan, balki bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarida reflektiv madaniyatni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishning eng muhim omillari sifatida ham belgilanadi. Tarbiyaviy munosabatlar umumiy holda shaxslararo munosabatlarning tashkil etuvchi komponenti sifatida ma'lum bir munosabatlar (inson-inson, inson-kitob-inson, inson-tabiat-inson, inson-texnika-inson, inson-san'at-inson) kontekstida tushunchalar, o'zaro munosabatlar va o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi va unda qator kattaliklar – an'anaviylik, milliylik, reflektiv muhitning holati, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlari rasmiy jihatdan namoyon bo'ladi.

Demak, o'quvchilarida reflektiv madaniyatni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda erishish zarur bo'lgan maqsadlar yo'nalishida o'quvchilarning faolligini ta'minlash samaradorligi ko'p jihatdan asosiy vositalar sifatida maydonga chiquvchi motivlar hamda motivlashtirish jarayonini tashkil etishga bog'liq bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, boshlang'ich sinf o'quvchilarida reflektiv madaniyatni rivojlantirish jarayonlarida reflektiv ta'limiy muhitni shakllantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishda o'quvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini o'rganish asosida ularning faolligini ta'minlash zarur bo'lib, o'quvchilarning faolligini ta'minlashda motivlashtirish ularda reflektiv madaniyatni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish vositalaridan biri sifatida maydonga chiqadi.

Motivlashtirishning ruhiy va tashkiliy iqtisodiy yo'nalishdagi turli nazariyalarini ikki guruhga bo'lish mumkin:



1. Motivlashtirishning mazmunli nazariyasi, u kishilarni boshqacha emas, aynan shunday ishlashga majbur qiladigan shaxsning ichki ruhiy faoliyatining identifikatsiyasiga asoslanadi (bu A.Maslou va F.Gersberg va boshqalar termini).

2. Motivlashtirishning protsessual nazariyasi – juda ham zamonaviy uslublardan biri bo‘lib, kishilar o‘zini bilishi va tarbiya ma’nosida o‘zlarini qanday tutishlariga asoslanadi (bu Porter-Loularning kutish nazariyasi, odillik nazariyasi va motivlashtirish modellaridir). Sanab o‘tilgan nazariyalar ba’zi masalalarda bir-biridan farq qilsada, ular bir-birini inkor etmaydi[6, 122].

Amerikalik psixolog A.Maslou nazariyasi bo‘yicha barcha ehtiyojlarni qat’iy ierarxiya strukturasi bo‘yicha joylashtirish mumkin. U quyi darajadagi ehtiyojlarni qondirishni talab qiladi, o‘z navbatida inson xulqiga ta’sir ko‘rsatadi, yuqori darajadagi ehtiyojlar esa asta-sekin ta’sir ko‘rsatadi.

Maslou inson hayotidagi mavjud ehtiyojlardan beshta asosiylarini ajratib ko‘rsatadi. Birlamchi ehtiyojlar – bu insonning hayotiy faoliyatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan ehtiyojlar. A.Maslouning fikricha, inson, eng avvalo ana shu ehtiyojlarini qondirish uchun ishlaydi. Birlamchi ehtiyojlar hisoblangan oziq-ovqatga, kiyim-kechakka, uy-joyga, uyquga bo‘lgan ehtiyoj qondirilsa, boshqa darajadagi ehtiyojlar ham asta-sekin ahamiyat kasb etib boradi.

Yuqorida aytganimizdek, birlamchi ehtiyojlar qondirilgach, boshqa zaruriyatlar kishilarni yuqori darajadagi ehtiyojlarga qarab harakat qilishga majbur qiladi. Lekin, insonning barcha ehtiyojlarni hech qachon to‘la-to‘kis qondirish imkoniyati bo‘lmaydi. Shu sababli ehtiyojlarga asoslangan motivlashtirish jarayoni mavjuddir.

Mak Klelland nazariyasida asosiy e’tibor yuqori darajadagi ehtiyojlarga qaratiladi, ularga hokimiyat, muvaffaqiyat, mansublik kiradi. Hokimiyat ehtiyoji – boshqa odamlarga ta’sir ko‘rsatishga xohish, bu albatta hokimiyatga intilish emas, balki o‘z ta’sirini ko‘rsatish ehtiyoji. Muvaffaqiyatga bo‘lgan ehtiyoj ma’lum bir vazifani muvaffaqiyat bilan bajarish orqali amalga oshiriladi.

Mansublik ehtiyoji Maslou nazariyasiga o‘xshash bo‘lib birga ishlaydigan xodimlar, tanishlar huzurida bo‘lishi, do‘stona munosabatlar o‘rnatishdan manfaatdorlikni ifodalaydi[6, 123].

Frederik Gersbergning motivlashtirish nazariyasi boisiy tozalanish (motivatsionnaya gigiyena) deb yuritilib, uning asosida qoniqish keltiruvchi mehnat ruhiy sog‘lom bo‘lishga ham hamkorlik ko‘rsatadi degan fikr yotadi.

Agar ish joyi iflos, qorong‘i, ko‘rimsiz bo‘lsa bu mehnatga intilishni kamaytiradi. Agar ish joyi toza, ergonometrik nuqtai nazardan benuqson bo‘lsa, mehnatga aniq ifodalangan motivlar paydo bo‘ladi. Gersberg bu omillarni “gigiyenik” omillarga oid deb hisoblaydi[6, 97].

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchisining ta’limga bo‘lgan munosabati shakllanadigan eng muhim bosqichdir. Ushbu bosqichda baholash jarayoni o‘quvchining ichki motivatsiyasini oshirish, o‘z ustida ishlashga undash va ta’lim jarayonida faol ishtirokini ta’minlashi kerak.

Ipsativ baholash tashqi mezon va standartlarga nisbatan ishlashga asoslangan emas, balki talabaning avvalgi ishiga asoslangan baho hisoblanadi. O‘quvchilar boshqa

o‘quvchilarga qarshi shaxsiy kamchiliklarini solishtirish yo‘li orqali o‘shini afzal ko‘radilar va bu yaxshi natija beradi. Shuning uchun ham bu tur ta‘lim tizimida o‘rganuvchilarni baholashda foydalanishning samarali usuli hisoblanadi .

Shundan kelib chiqib, ipsativ baholash o‘rganuvchilar erishayotgan yutuqlarda muvaffaqiyatni ta‘minlashini ta‘kidlash mumkin, shu tariqa talabalarda bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishning instrumental (tashqi) motivi sifatida xizmat qiladi. Ta‘lim jarayonida talaba fikr-mulohazalar bilan ta‘minlansa, o‘z kamchilik va xatolarini o‘rgansa, bosqichning qaysi nuqtasida ko‘proq ish olib borishga va kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi. Ipsativ baholashning yana bir ijobiy xususiyati shundan iboratki, u o‘z- o‘zini baholay olish va o‘ziga ishonuvchanlikning ortishiga yordam beradi. Ushbu baholash turi instrumental motivatsion omil sifatida xizmat qilsa, fidbekning obyektivlik, effektivlik hamda shaffoflik tamoyillarining implitsit, eksplitsit va metalingvistik shakllari esa konstruktiv fidbek berishni ta‘minlaydi (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Fidbek va ipsativ baholash reflektiv baholash kompleksi sifatida

Reflektiv baholash				
Fidbek shakllari			Ipsativ baholash	
Implitsit	Eksplitsit	Metalingvistik	Talabani avvalgi ishiga asoslangan	
Xususiyati				
Ko‘chma ma‘noda ifodalangan	To‘g‘ri, aniq ifodalangan	Grammatik-leksik tahlil qilingan	Shaxsiy kamchiliklarni solishtirish	
Tamoyillari				
Obyektivlik	Effektivlik	Shaffoflik	O‘z-o‘zini baholay olishni o‘rganish	O‘ziga ishonuvchanlikning ortishi
Konstruktiv fidbek berish				
Qaytadan ishlash o‘z ustida ishlash jarayonini ko‘zda tutish natijani ko‘zda tutish uzoq muddatli ta‘sir				

Fidbek taqdim qilishning keltirilgan shakllari va yo‘llarining asosiy maqsadi o‘rganuvchilarning predmetli motivatsiyasi muammosiga pedagoglar e‘tiborini jalb qilish hamda ular yechimining muqobil yo‘llarini izlashdir. Bunday yo‘llardan biri – bu kuchli bilim asosida shakllantirilgan fidbek. Olib borilgan tahlillardan kelib chiqib, shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, fidbek butunlay bo‘lmasa-da, ma‘lum bir meyorda xorijiy tillarni o‘rganish bo‘yicha o‘quv motivatsiyasini rivojlantirish muammosini yecha oladi. Fidbekning yana bir

yutuqli tomoni shundaki, u pedagogning professional rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bunda pedagogning vaziyatni to'g'ri baholash ko'nikmasini takomillashtiradi, vujudga kelgan har qanday vaziyatda talabalarga mos ravishda yondashuvni qidirishga imkon beradi, tahliliy ko'nikmalar va til bilan bog'liq yangi bilimlarning shakllanishiga va rivojlanishiga imkon beradi.

Olimlar tomonidan fidbek berish masalasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Fidbek talabani o'zini-o'zi boshqarishiga yordam beradi.

Bir guruhda qo'l kelgan fidbek boshqa guruhga ishlamasligi yoki bir bolaga nisbatan qo'llanilgan fidbek boshqasiga ta'sir qilmasligi mumkin.

2. Talabalar fikrini ochiq bayon qilishga imkon berish kerak.

3. Where am I going? How am I going? Where to next?

10 Shunday qilib, aynan fidbek usulining qo'llanilishi natijasida dars haqida, uning natijaviyligi to'g'risidagi fikrlarni, talabalarning ham qarashlarini bilib olish va o'rganish borasidagi muhim ma'lumotlar qo'lga kiritiladi va taqqoslanadi, o'qituvchi tomonidan o'z vaqtida samarali tuzatishlar kiritib boriladi. Talabalarni o'z ustida ishlashiga, dars jarayoniga to'liq kirisha olishiga jalb qilish bilan birga, ularning fikr- mulohazalariga aniqlik kiritish imkoniyatini ham tatbiq qiladi. Xatolarning topilishi, aniqlanishi va talabalar tomonidan ularni tuzatishga bo'lgan intilishlar, tahrir qilishlar singari vazifalarga bevosita o'zlashtirish darajasi past bo'lgan talabalarning ham jalb qilinishi ortadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda fidbek va ipsativ baholashni reflektiv baholash kompleksi sifatida joriy etish zamonaviy ta'limning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Ushbu baholash yondashuvlari o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash bilangina cheklanmay, balki ularning shaxsiy rivoji, mustaqil fikrlashi, o'z-o'zini baholash va refleksiya qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fidbek orqali o'quvchi o'z faoliyatiga nisbatan aniq va tushunarli fikr-mulohazalar oladi, bu esa xatolarni rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qilishga yordam beradi. Ipsativ baholash esa o'quvchini boshqa tengdoshlari bilan emas, balki uning shaxsiy rivojlanish dinamikasi bilan solishtirish asosida amalga oshirilgani sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijobiy motivatsiyani shakllantiradi va o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Fidbek va ipsativ baholashning uyg'unlashuvi reflektiv baholashning yaxlit tizimini vujudga keltiradi. Bu tizim orqali o'quvchi o'z yutuqlarini anglaydi, kamchiliklarini tahlil qiladi va keyingi o'quv faoliyatini rejalashtirishga o'rganadi. Natijada ta'lim jarayoni shaxsga yo'naltirilgan, insonparvar va rivojlantiruvchi tus oladi.

Shu bois, boshlang'ich ta'lim amaliyotida fidbek va ipsativ baholashni tizimli ravishda joriy etish, o'qituvchilarning baholash kompetensiyalarini oshirish hamda o'quvchilarning reflektiv tafakkurini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish va barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy L. S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1996.
2. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 1956.
3. Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning. – Assessment in Education, 1998.
4. Sadler D. R. Formative assessment and the design of instructional systems. – Instructional Science, 1989.
5. Torrance H., Pryor J. Investigating formative assessment. – Open University Press, 2001.
6. Begmurzayevich, D. B. (2022). Bo ‘lajak boshlang ‘ich sinf o ‘qituvchilarida reflektiv madaniyatni rivojlantirishning metodologik asoslari. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 3(6), 154-160.
7. Harlen W. Assessment for Learning. – London: Sage Publications, 2007.
8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’limda baholashga oid me’yoriy hujjatlar.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmonlari (ta’lim sohasiga oid).
10. Zamonov A. A. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
11. Karimova G. K. Ta’limda baholashning innovatsion usullari. – Toshkent, 2019. Internet manbalar
11. OECD rasmiy sayti – ta’lim va baholashga oid tadqiqotlar:
<https://www.oecd.org>
12. UNESCO ta’lim resurslari:
<https://www.unesco.org>
13. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar:
<https://www.uis.unesco.org>
14. Zamonaviy ta’lim metodlari va baholash tizimlari:
<https://www.edutopia.org>
15. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi rasmiy sayti:
<https://www.uzedu.uz>